ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

«KOREYS TILIDAGI –고 싶다 KO‘MAKCHI FE’LINING MODAL MA’NOLARI VA O‘ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI»

Abdisattarova Go‘zal Sanjar qizi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
1-bosqich magistranti
+998979511603 bintusanjar769@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23221152

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys tilidagi –고 싶다[go‘shipta] ko‘makchi fe’lining modal ma’nolari va ularning o‘zbek tilida ifodalanish usullari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilindi. –고 싶다 [go‘shipta] konstruksiyasi asosan “istak, xoshish” kabi modal ma’nolarni ifodalaydi. Biroq kontekstga qarab “ehtimollik, “niyat” kabi qo‘shimcha modal ma’nolarni ham ifodalab kelishi mumkin. O‘zbek tilida bu konstruksiya “-moqchi”, “-sh/ishni xohlamoq”, “gisi kelmoq”, “istamoq” kabi shakllar orqali beriladi. Ushbu maqolada qiyosiy usulda tahlil o‘tkazilib, –고 싶다[go‘shipta] ko‘makchi fe’li va uning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: –고 싶다, modal fe’l, xohish mayli, ekvivalentlik, koreys tili, o‘zbek tili

Abstract:
This article provides a comparative-typological analysis of the modal meanings of the Korean auxiliary verb –고 싶다 [go shipta] and the ways in which these meanings are expressed in the Uzbek language. The construction –고 싶다 [go shipta] primarily conveys modal meanings such as desire and wish. However, depending on the context, it may also express additional modal nuances such as intention and possibility. In Uzbek, this construction is rendered through forms such as “-moqchi”, “–sh/ishni xohlamoq”, “gisi kelmoq”, and “istamoq.” Using a comparative method, the article analyzes the auxiliary verb –고 싶다 [go shipta] and its Uzbek equivalents.

Keywords: –고 싶다, modal verb, desiderative mood, equivalence, Korean language, Uzbek language.

Kirish

Koreys va o‘zbek tillari tipologik jihatdan farqli tizimlarga mansub bo‘lsa-da, modal ma’nolarni ifodalashda o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Ayniqsa, xohish-istak maylining ifodalanishi – har ikki tilda ham alohida grammatik vositalar orqali amalga oshiriladi. Koreys tilidagi –고 싶다 [go‘shipta] 1-shaxs va 3-shaxsdagi xohishni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu shakl ba’zi kontekstlarda sof xohishdan tashqari modal ma’nolarni ham ifodalab keladi.

Ho Gwang-suning “–싶다 konstruksiyasining sintaktik-semantik xususiyatlari va bog‘lovchi elementlari” (2000) nomli tadqiqotida kelishicha -고 싶다 [go‘shipta] ushbu konstruksiyaning asosiy ma’nosi “umid” yoki “istak” deb belgilanadi[1,p.133]. 국립국어 연구원 Milliy til instituti (1993)da esa “oldingi so‘z bildirgan harakatni amalga oshirish istagi yoki ehtiyoji mavjudligini ifodalovchi birlik” deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotchilar “-고 싶다 [go‘shipta]” konstruksiyasini “umid”, “istak”, “xohish” kabi ma’nolar bilan izohlaydilar[2].

김소영 o‘zining “Koreys tilidagi –고 싶다 yordamchi fe’li va xitoy tilidagi ‘想’, ‘要’ modal fe’llarining qiyosiy tadqiqi – ‘istak’ va ‘iroda’ ma’nolari asosida” nomli tadqiqotida –고 싶다 [go‘shipta] va xitoy tilidagi muqobil fe’lining qiyosiy jihatdan tahlil qilgan[3,p.10].

Hozirga qadar o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan koreys tilidagi modal ko‘makchi fe’llarining semantik pragmatik xususiyatlari bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan Yeon Sangheum “O‘zbek tilida modal ma’noli ko‘makchi fe’llarning koreys tilida ifodalanishi” nomli tadqiqotida o‘zbek va koreys tilidagi modal ko‘makchi fe’llarni qiyosiy tahlil qilgan[4]. Hamda Gulshoda Yunusova “Koreys tilida ko‘makchi fe’llar” nomli tadqiqotida koreys tilidagi ko‘makchi fe’llar ustida tadqiqot olib borgan[5]. Biroq shu vaqtgacha o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan –고 싶다 [go‘shipta] konstruksiyasi alohida o‘rganilib o‘zbek tilidagi muqobil variantlari qiyosiy tadqiq qilinmagan. Shu bois mazkur ishda –고 싶다 [go‘shipta] konstruksiyasining modal ma’no doirasini aniqlash va ularning o‘zbek tilidagi eng muqobil ekvivalentlarini belgilash maqsad qilib qo‘yildi.

Natija va muhokama

Koreys tilida ko‘makchi fe’llar [보조용언-bo‘jo‘yo‘ngon] o‘zbek tilidan farqli ravishda ikki turkumga ko‘makchi fe’l [보조동사 – bo‘jo‘do‘ngsa] va ko‘makchi sifat [보조형용사 – bo‘jo‘hyongyo‘ngsa] ga bo‘linadi. Chunonchi –고 싶다 [go‘shipta] ko‘makchi sifat hisoblanadi. U yetakchi fe’lga -고 [go‘] affiksi orqali qo‘shiladi. 싶다[shipta] mustaqil fe’l bo‘lmaganligi sababli alohida qo‘llana olmaydi. Hamisha yetakchi fe’lga qo‘shilib, qo‘shimcha ma’no yuklash vazifasida keladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilida koreys tilidagi -고 싶다 [go‘shipta] ko‘makchi fe’liga to‘liq strukturaviy va semantik jihatdan mos keladigan alohida ko‘makchi fe’l mavjud emas. Buning asosiy sababi – ikki tilning tipologik tuzilishidagi farqidir. Jumladan koreys tili agglyutinativ til bo‘lib, asosiy fe’lga –고 싶다 [go‘ shipta] shaklini qo‘shib, yangi bir modal ma’noli fe’l yasaydi. O‘zbek tili ham agglyutinativ xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, xohish maylini ifodalashda mustaqil ko‘makchi fe’l tizimiga ega emas. A. Nurmanovning “O‘zbek tili grammatik semantikasi masalalari” asarida O‘zbek tilida xohish ma’nosi asosan analitik (yordamchi so‘zlar, modal so‘zlar) yoki morfologik (maxsus qo‘shimchalar) vositalar bilan ifodalanadi[6,p 57]. Shu bilan birga, –고 싶다 [go‘ shipta] ifodalagan modal ma’nolarni o‘zbek tilida bir necha turli vositalar orqali berish mumkin. Quyida ularni qiyosiy tahlil qilamiz.

O‘zbek tilidagi asosiy muqobil vositalar

Birinchi vosita – “-moqchi” qo‘shimchasi. Bu shakl fe’lga qo‘shilib, “niyat” yoki “xohish” ma’nosini ifodalaydi. Masalan, koreys tilidagi 먹고 싶다 (ovqat yegisi kelmoq) o‘zbek tilida ko‘pincha yemoqchiman deb tarjima qilinadi. Biroq “-moqchi” va “-고 싶다” o‘rtasida muhim farq bor: “-moqchi” asosan ongli rejalashtirilgan niyatni ifodalasa, –고 싶다 sof hissiy istakni ham, rejali niyatni ham ifodalay oladi. Shu sababli “-moqchi” -고 싶다 ga to‘liq muqobil emas, balki uning bir qirrasini ochib beradi. Aksincha koreys tilidagi -려고 하다[ryogo‘ hada],-고자 하다 [go‘ja hada] konstruksiyalari o‘zbek tilidagi “-moqchi”, “moqchi bo‘lmoq” ma’nolariga to‘liq ekvivalent bo‘la oladi.

Misollar:

(1) 저는 한국에 가고 싶어요. [chonin hanguge kago‘ shipoyo]

Men Koreyaga bormoqchiman

(2) 저는 영국에서 살고 싶어요. [chonin yongugeso salgo‘ shipoyo]

Men Angliyada yashamoqchiman.

(3) 민수 씨가 새 차를 사고 싶어 해요. [Minsu shiga se charil sago‘ shipo heyo]

Minsu yangi mashina sotib olmoqchi.

(4) 유진 씨가 방학때 여행을 가고 싶어 한다고 했습니다. [Yujin shiga banghak ttae yohengil kago‘ shipo handago‘ hessimnida]

Yujin ta’tilda sayohatga bormoqchi ekanini aytdi.

Yuqoridagi (1) va (2) misolda reja qilingan niyatni ifodalaganda -고 싶다 konstruksiyasi qo‘llangan. Biroq reja va maqsadni ifodalashda -려고 하다 [ryogo‘ hada], -고자 하다 [go‘ja hada] konstruksiyalari yanada muqobil variant hisoblanadi. Shuningdek (3) va (4) misolga e’tibor qiladigan bo‘lsak, -고 싶다 konstruksiyasi shaxsga ko‘ra qo‘llanilishi biroz farq qiladi. Jumladan 1-va 2- shaxsda -고 싶다[go‘ shipta], 3-shaxsda esa -고 싶어 하다 [go‘ shipohada] konstruksiyasi qo‘llaniladi.

Misol:

- 저는 자고 싶었다. [chonin chago‘ shipotta] Men uxlashni xohladim.
- 그는 자고 싶어 했다. [kinin chago‘ shipo hetta] U uxlashni xohladi.

Ikkinchi vosita – “-gisi kelmoq” analitik konstruksiyasi. Bu shakl o‘zbek tilida –고 싶다 ga semantik jihatdan eng yaqin hisoblanadi. “-gisi kelmoq” kuchli, ko‘pincha oniy va hissiy jihatdan boyitilgan xohishni ifodalaydi. Masalan, Koreys kinosini ko‘rgim kelyapti iborasi koreys tilidagi 한국 영화를 보고 싶다 ga hissiy jihatdan juda yaqin turadi. Biroq “-gisi kelmoq” o‘zbek tilida mustaqil fe’l emas, balki “-gisi” (istak nomi) + “kelmoq” (yordamchi fe’l) analitik birikmasidir. Koreys tilidagi kabi bir ko‘makchi fe’l emasligi bilan farqlanadi.

Misollar:

(5) 아이스크림을 먹고 싶어요 [aisikirimil mokko‘ shipoyo]

Muzqaymoq yegim kelyapti.

(6) 저도 이 원피스를 살고 싶어요 [chodo‘ i wonpisiril salgo‘ shipoyo]

Men ham bu ko‘ylakni sotib olgim kelyapti.

(7) 엄마도 여행하고 싶은 마음을 열었어요. [ommado‘ yohenghago‘ shipin maimil yorossoyo]

Onam ham sayohat qilgisi kelganligini aytdi.

(8) 오래동안 보고 싶었던 사람이 너라고 했다. [o‘redongan po‘go‘ shipotton sarami norago‘ hetta]

Uzoq vaqtdan buyon ko‘rishni xohlagan odamim sen deb aytdi./ Uzoq vaqtdan buyon ko‘rgisi kelgan odami senligini aytdi.

Yuqorida keltirilgan (5) va (6) misollarda so‘zlovchi oniy istagini ifodalayotganini bilishimiz mumkin. Xususan 고 싶다 [go‘ shipta] konstruksiyasi oniy istakni ifodalashda kengroq qo‘llaniladi. Shu jihatdan o‘zbek tilidagi oniy istak ifodalovchi “-gisi kelmoq” konstruksiyasiga semantik jihatdan mos keladi. Shuningdek tarjimada nutqni tabiiy ochib berishda ham ushbu variantga yuzlaniladi. (7) va (8) misolda esa konstruksiya uzoq davom etayotgan ichki xohishni ifodalashda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Uchinchi vosita – “istamoq”, “xohlamoq” mustaqil fe’llari. Istamoq, xohlamoq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xohishni ifodalaydi va –고 싶다[go‘ shipta] ga eng sodda tarjima variantidir. Masalan, Men kofe ichishni istayman – 나는 커피를 마시고 싶다[nanin kopiril mashigo‘ shipta]. Biroq “istamoq”, “xohlamoq” mustaqil fe’l bo‘lib, asosiy fe’ldan keyin kelmaydi, balki to‘ldiruvchi ergash gap orqali birikadi. Koreys tilidagi –고 싶다 esa asosiy fe’lga to‘g‘ridan-to‘g‘ri birikib, bir leksik birlik hosil qiladi. Shu bois strukturaviy jihatdan farq yuzaga chiqadi.

Misollar:

(9) 언니가 새 집에 이사하고 싶어 해요 [onniga se jibe isahago‘ shipo heyo]

Opam yangi uyga ko‘chishni xohlayapti.

(10) 그녀가 부자가 되고 싶어 합니다. [kinyoga bujaga do‘ego‘ shipohamnida]

U ayol boy bo‘lishni istaydi.

Yuqoridagi (9) misolda niyatni + xohish ifodalanayotgan bo‘lsa, (10) misolda esa asosan xohish ifodalanaypti. -고 싶다 konstruksiyasining o‘zbek tiliga tarjimasida eng oson variant bu “istamoq”, “xohlamoq” fe’llarini qo‘llash hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda koreys tilidagi -고 싶다 ko‘makchi fe’lining modal ma’nolari va ularning o‘zbek tilidagi ifodalanishi qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga erishildi:

–고 싶다 asosan xohish-istak ma’nosini ifodalaydi, ammo kontekstga qarab niyat, 3-shaxs xohishi kabi qo‘shimcha modal ma’nolarni ham beradi.

O‘zbek tilida –고 싶다 ga tuzilish va semantik jihatdan to‘liq mos keladigan alohida ko‘makchi fe’l mavjud emas. Uning o‘rniga “-moqchi” (niyat), “-gisi kelmoq” (hissiy istak), “istamoq”,”xohlamoq” (neytral xohish) kabi turli vositalar qo‘llaniladi.

Ikki til o‘rtasidagi asosiy farqlar: koreys tilida 3-shaxs xohishi maxsus shaklni (–고 싶어 하다) talab qiladi, o‘zbek tilida esa bunday cheklov yo‘q

Tarjimada –고 싶다 ning ma’nosini to‘g‘ri berish uchun kontekstni hisobga olish zarur: hissiy istakda “-gisi kelmoq”, niyatda “-moqchi”, taxminda “-sa kerak” qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda koreys tilidagi –고 싶다 o‘zbek tilidagi vositalardan semantik kengligi va grammatik ixtisoslashuvi bilan farq qiladi. Unga to‘liq ekvivalent bo‘lmasa-da, kontekstga mos tanlangan turli vositalar yordamida uning barcha modal ma’nolarini ifodalash mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari koreys tilini o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga o‘qitish metodikasini takomillashtirish, xususan, –고 싶다 [go‘ shipta] shaklining to‘g‘ri va kontekstga mos o‘rgatilishi uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu tadqiqot koreys va turkiy tillar (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turk) orasidagi modal kategoriyalar bo‘yicha keyingi qiyosiy-tipologik tadqiqotlar uchun nazariy zamin yaratadi. Maqola xulosalari tarjimonlik amaliyotida –고 싶다 [go‘ shipta] shaklining to‘g‘ri va kontekstga mos tarjima qilinishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotchilarga ham ilmiy manba o‘laroq xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 호광수. ‘-싶다’ 구성의 통사 의미 특징과 연결소, 국어문학 35 집, 국어문학회, pp.133-177
2. 국립국어 연구원
3. 한국어 보조 용언 ‘-고 싶다’와 중국어 능원 동사 ‘想’, ‘要’의 대조 연구 - ‘희망’, ‘의지’의 의미를 중심으로 – 서울: 서울시립대학교, 2021. -쪽.58
4. Yeon Sangheum. O‘zbek tilida modal ma’noli ko‘makchi fe’llarning koreys tilida ifodalanishi – Toshkent, 2022. – p.154
5. Gulshoda. Y. Koreys tilida ko‘makchi fe’llar – Toshkent, 2022. – p. 119
6. A.Nurmonov. O‘zbek tili grammatik semantik masalalari – Toshkent: Fan, 2001. – p. 57